

**Boshlang'ich sinflarga ot so'z turkumini o'qitish
samaradorligiga ta'sir qiluvchi lingvistik va ekstralingvistik
omillar.**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasining o'qituvchisi

Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'rgatishda o'quvchilarning shu mavzuni o'zlashtirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida mustaqil so'z turkumlarining semantik, morfologik, sintaktik belgilari va so'z yasash hodisalari bilan birgalikda darsni to'g'ri tashkil qilish, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish masalalariga tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ot so'z turkumi, lingvistik omillar, morfologik, sintaktik belgilar, so'z yasalishi, grammatik kategoriya, ot yasalishi, psixologik omillar.

Ma'lumki, til o'qitish jarayonida o'qitish samaradorligiga ma'lum omillar ta'sir ko'rsatadi. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ikki guruhga bo'lib o'rganamiz: *lingvistik* va *ekstralingvistik*.

Lingvistik omillar sifatida mustaqil so'z turkumlarining semantik, morfologik, sintaktik belgilari va so'z yasash hodisalarini keltirish mumkin.

Shu o'rinda mazkur lingvistik omillarni quyidagicha talqin qilish mumkin:
semantik belgilar – mustaqil so'z turkumlarining lug'aviy-ma'naviy guruhlari;
morfologik belgilar – mustaqil so'z turkumlarining grammatik kategoriyalari;
sintaktik belgilar – mustaqil so'z turkumlarining gap bo'lagi vazifasida kelish imkoniyati; **so'z yasalishi** – mustaqil so'z turkumlarning yangi so'z yoki shakl hosil qilish imkoniyati.

Mustaqil so'z turkumlari kategorial (grammatik ma'no va forma) va

nokategorial (modal forma va subyektiv baho forma) formalariga ega bo'lib, bu o'qitish jarayonida hisobga olinishi zarur. Grammatik ma'no va forma yasash turli ifoda vositalar yordamida amalga oshirilgan ekan, bu metodik ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'qitishda lingvistik omillar hisobga olinishi zarur.

Ot so'z turkumining semantik guruhlarini. Atoqli ot quyidagi lug'aviy mavzuviy to'daga ega: 1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi; 2. Jo'g'rofiy nom; 3. Tashkilot, muassasa, korxonalar nomi; 4. Samoviy yoritgichlar nomi; 5. Tarixiy hodisa nomi; 6. Hayvon nomi; 7. Mahsulot nomi; 8. Ilohiy tushunchani ifodalovchi nom.

Atoqli ot matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat kontekstda reallashadi. Masalan, *Sanam* so'zining atoqli yoki turdosh ekanligi shu so'zni qurshab turgan so'z yordamida anglashiladi. Bu jihatdan atoqli ot olmoshga o'xshab ketadi. Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) muayyan; b) mavhum otlarga bo'linadi.

Muayyan ot quyidagi turlarga ega: 1. Modda nomi: oltin, kumush, qum, suv. 2. Shaxs tavsifi nomi: yigit, chol, o'zbek, tojik, cho'loq, kasal, ota, ona. 3. Buyum nomi: qalam, kitob, cho'mich, kosa, gilam, sholcha. 4. O'simlik nomi: daraxt, buta, o't, jiyda, ildiz. 5. O'rin-joy nomi: qishloq, shahar, sahro, adir. 6. Miqdor nomi: misqol, tonna, botmon, chaqirim. 7. Tashkilot va muassasa nomlari: maktab, idora, do'kon, bozor. 8. Vaqt-payt nomi: kun, fasl, tong.

Otlarni semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin: 1. Bir turdagi predmetlardan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini ifodalashga ko'ra; 2. *Kim?* yoki *nima?* savollariga javob bo'lishiga ko'ra; 3. Sanalish yoki sanalmasligiga ko'ra. Birinchi tasnifga ko'ra otlar 2 turga ajraladi: a) atoqli otlar, b) turdosh otlar.

Grammatik ma'no bilan uning shakliy ifodasi birgalikda grammatik kategoriyani tashkil qiladi. Grammatik kategoriyalar bevosita morfologiyaga xos bo'lgan so'z turkumlari, grammatik son, kelishik, zamon kabi hodisalarni shuningdek, sintagma, ega, kesim, to'ldiruvchi kabi hodisalarni (sintaktik

kategoriyalarni) o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra grammatik kategoriyaning 2 turi farqlanadi: 1) morfologik kategoriya; 2) sintaktik kategoriya. O'zaro bir-biriga zid qo'yilgan va qiyosan olingan grammatik ma'nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari grammatik shakllar tizimi morfologik kategoriya deyiladi. Morfologik kategoriyalar so'zning qaysi turkumga kirishi bilan bog'liq. Har bir so'z turkumining o'z grammatik kategoriyasi bor.

Ot so'z turkumining grammatik kategoriyalari. Son va kelishik kategoriyalari ot uchun doimiy, egalik kategoriyasi esa doimiy bo'lmagan kategoriyadir. Otlarga xos grammatik kategoriya sifatida *egalik, kelishik, son* kategoriyalarini kiritishimiz mumkin.

Son kategoriyasi. Otlarga xos morfologik belgilardan biri uning grammatik son kategoriyasiga ega bo'lishidir. O'zbek tilidagi son kategoriyasini bir-biriga qarama - qarshi qo'yilgan birlik va ko'plik shakllari tashkil etadi. Birlik shakldagi otlar bir jinsdagi narsalardan bittasini tashkil etadi: *kampyuter, doska, ruchka; behi, gilos, yong'oq*. Ko'plik shakldagi otlar esa bir jinsdagi narsalarning ikki yoki undan ortiq, lekin aniq bir qiymatini ko'rsatmagan holda ifodalaydi: *bolalar, o'yinchoqlar, rasmlar; behilar, gilolar, yong'oqlar* kabi. O'zbek tilida ko'plik ma'nosi uch xil usul bilan yasaladi: a) morfologik usul; b) leksik-semantik usul; v) aralash usul. Son kategoriyasi birlik va ko'plik shaklga ega. Otlardan oldin ularning son ko'rsatkichlari kelsa, otga *-lar* qo'shimchasi qo'shilmaydi (masalan, ikki *shahzoda*).

Kelishik kategoriyasi. Otning boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'noni ifodalovchi shakllar tizimi kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi 6 grammatik ma'no yoki 6 kelishikni o'zida birlashtiradi: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, o'rin-payt kelishigi, jo'nalish kelishigi va chiqish kelishiklaridir.

Otning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning funksional shakllarga ega bo'lishidir. Shuningdek, ot o'ziga xos so'z yasaliş sistemasiga ham ega. Otlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft, takror va qisqartma shaklda bo'ladi.

Egalik kategoriyasi. Otlarning grammatik xususiyatlaridan biri uning

egalik kategoriyasiga ega bo'lishidir. Predmetning 3 shaxsdan (so'zlovchi, tinglovchi, o'zgan) biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi shakllar tizimi egalik kategoriyasi deyiladi. Predmetning uch shaxsdan biriga mansubligini ko'rsatuvchi morfema egalik affiksi deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma'nosi bilan birga uning (shaxsning) sonini (birligi va ko'pligi) ham ko'rsatadi: *do 'stim - do 'stimiz, qishlog 'im - qishlog 'imiz, uyim-uyimiz* kabi.

Otlarda boshqa kategoriyalar. Otlarda kichraytirish-erkalash, hurmat, ajratish-yakkalash, gumon-chama, kuchaytiruv-ta'kid, funksional formalar bo'lib, ular analitik va sintetik shakllar orqali ifodalanadi.

Otning sintaktik belgilari. Ot o'zi olgan kelishik shakliga muvofiq *ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, izohlovchi, hol va kesim* vazifasida, shuningdek, *nominativ (atov) gap, undalma* vazifasida keladi.

Otning turli xil gap bo'laklari vazifasida kelishi, shuningdek, undalma, atov gap, izohlovchi bo'lib kelishi uning birlamchi vazifasidir. Ot sifatlashsa, ya'ni atributiv formaga kirsam, gapda *sifatlovchi-aniqlovchi* vazifasida ham keladi. Bu ot uchun ikkilamchi vazifa hisoblanadi. Masalan: *tilla baldoq, yog'och cho'mich, temir tanga, g'isht ko'prik* kabi.

Mustaqil so'zlarni o'qitishda ularning umumgrammatik (kategorial) semantikasi va ba'zi lisoniy (morfologik, sintaktik, semantik, so'z yasalishi) belgilarga asoslanishi kabi masalalar e'tiborga olinishi lozim. Ot so'z turkumlarini o'qitish jarayonida so'z yasash hodisasi bilan birga shakl yasash hodisasini ham metodik masala sifatida ko'rish lozim. O'zbek tilida mustaqil so'z turkumlari o'qitilayotganda so'z shakli masalasini o'qitish alohida dolzarb masala bo'lib, o'zak va qo'shimcha o'rtasidagi munosabatlar alohida e'tirof etiladi.

Ot yasalishi. Hozirgi o'zbek tilida otlar quyidagi usullar bilan yasaladi: 1) affiksatsiya usuli, 2) kompozitsiya usuli. Bular so'z yasashning faol usullari hisoblanadi. Bulardan tashqari, qisman fonetik usul va semantik usul bilan yasalgan otlar ham bor. Ot yasash usuli sifatida abbreviatsiyani ham kiritadi.

Ot so'z turkumiga kirgan so'zlar, kategorial shakl bilan bir qatorda, ko'pgina nokategorial shakllarga ham ega. Bu shakllar turlicha grammatik

ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Otning nokategorial shakllari tuzilish jihatidan uch turga bo'linadi: 1) sintetik shakl; 2) analitik shakl; 3) juft va takroriy shakl. Otning sintetik shakllari o'z ma'no xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) kichraytish shakli; 2) erkalash shakli; 3) qarashlilik shakli; 4) o'rin belgisi shakli; 5) chegara shakli; 6) hurmat shakli; 7) o'xshatish shakli .

Aniq bo'ladiki, ot so'z turkumini o'rgatishda o'quvchilar so'zning tarkibi, yasalish jarayoni, so'zning lug'aviy va grammatik xususiyatlari, ularni nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanadi va ma'lum bilim, ko'nikma, malakalar orttiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'rgatish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ekstralingvistik omillar sifatida didaktik va psixologik omillar qayd etilar ekan, didaktik omil sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: ot so'z turkumi muloqotning grammatik vositasi sifatida o'qitilishi (o'zbek tili o'qitish metodikasining tarkibiy qismi sifatida); ot so'z turkumiga oid so'zlarni o'qitish mazmunini va o'qitish shaklini to'g'ri belgilash; ot so'z turkumini o'qitish usul, metod va vositalarini to'g'ri belgilash;

Psixologik omillar sifatida quyidagilarni e'tiborga olish zarur: Ot so'z turkumini o'qitishni tashkil etishda bola psixologiyasini hisobga olish, yoshi va shaxsiy xususiyatlari (o'rganish usuli, aqliy qobiliyati, zehni, qiziqishi, motivatsiya, ta'limiy bazasi va h.k.) ni e'tiborga olish, xotira, xayol, tafakkur kabi individual xususiyatlar o'rganilayotgan narsa bilan aloqadorligini hisobga olish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Qodirov M., va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiya, 2012. – 380 b.
2. Ibrohimov S., Begmatov E., Ahmedov A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T., Fan. 1976. (65 000 dan ortiq so'z) Sh. Shoabdurahmonov tahriri ostida. – 632 b.
3. Jabborov E., G. Tilovova, G. Meyliyeva. O'zbek tili o'qitishning amaliy metodikasi. –Qarshi: QarDU, 2010. – 77 b.
4. Jamolxonov. N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005.

5. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G 'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir nashriyoti, 2009. – 352 b.
6. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995.
7. O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981. – 315 b.
8. Jo'rayeva N. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari// Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 9, 2021, B. 118-121.
9. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G 'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir nashriyoti, 2009. – 352 b.
10. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995.
11. Ona tili (maktab o'quvchilari uchun). Qomus. –T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 267 b.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyouz.com
3. www.kutubxona.com